



## Oila huquqi asoslari

Andijon davlat universiteti

MG'MAHT yo'nalishi 3-bosqich talabasi

**Mirzarayimova Zebiniso Mansurbek qizi**

**Annotatsiya:** Maqolada oila huquqi asoslari aks etgan bo'lib, jamiyatimizda oilaning roli, oila jamiyatning asosiy bo'g'ini va davlat iqtisodiy, siyosiy, ijtimoiy va ma'naviy islohotlarining asosiy maqsadi oila va inson farovonligi uchun qaratilganligi yoritilgan.

**Kalit so'zlar:** Oila, jamiyat, huquq, Konstitutsiya, Oila kodeksi, "Xalqaro Oila kuni", er-xotinlik, otalik, onalik, bolalik.

O'zbekiston Respublikasi o'zligini namoyon etishda, muayyan maqsad va ehtiyojlariga erishishda oila kabi noyob tashkiliy tuzilmalar, ijtimoiy muassasalar ko'magidan foydalanadi.

Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oila tarbiya maskanining majmuini ifodalovchi tushuncha sifatida namoyon bo'lib, fuqarolik jamiyatining uzviy tarkibiy qismi hisoblanadi. Muayyan ijtimoiy vazifani o'taydi.

Oila jamiyatning asosiy va birlamchi bo'g'inidir. Oila insonlarning turmush kechirish va hayot davomiyligini ta'minlash tarzidir. Uning jamiyatdagi yuksak nufuzi, e'tibori va ahamiyati bois Konstitutsiyamizda alohida bob oilaga bag'ishlangan.

O'zbekistonda oilaga bag'ishlab yil nomlarining berilishi jamiyatda oilaning o'rni va ahamiyati qanchalik katta ekanligidan dalolat beradi.

O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov oila haqida gapirib, shuni ta'kidlagan edi: "...avvalambor, oila hayotning abadiyligini, avlodlarning davomiyligini ta'minlaydigan, muqaddas nasllar qanday inson bo'lib yetishishiga bevosita ta'sir ko'rsatadigan tarbiya o'chog'i ekanini tan olishimiz darkor. Sharqda qadim-qadimdan oila muqaddas Vatan sanalgan. Agar oila sog'lom va mustahkam bo'lsa, mahallada tinchlik va hamjihatlikka erishiladi. Binobarin, mahalla-yurt mustahkam bo'lsagina, davlatda osoyishtalik va barqarorlik hukm suradi. Zero, oila farovonligi – milliy farovonlik asosidir.

Xalqimiz tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, eng qimmatli an'analar: halollik, rostgo'ylik, or-nomus, sharmu-hayo, mehru oqibat, mehnatsevarlik kabi barcha insoniy fazilatlar, eng avvalo, oilada shakllangan".<sup>5</sup>

Oila fuqarolik jamiyatining tayanchi. Bu muqaddas zaminda inson dunyoga keladi, ma'nan, ruhan va jismonan kamol topadi, shakllanadi.

<sup>5</sup> 1998 yil – oila yili – 1998 год семьи.-Т.:Узбекистон.1998.9-10б.

Oila – jamiyatning asosiy bo'g'inidir. Oila jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega. Oilada er-xotinlik, ota-onalik, farzandlarning o'zaro shaxsiy hamda mulkiy huquq va manfaatlari bilan bog'lik munosabatlar mujassamlashgandir.<sup>6</sup>

Oila har bir insonning shaxs sifatida shakllanishida muhim rol egallaydi. Insoniyatning shakllanishi, yuksalishi va kamol topishi uchun asos bo'ladi. Oila jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqini O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi XIV bobi ifodalab bergan. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi 63-moddasida: “Oila jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasida bo'lish huquqiga ega.

Nikoh tomonlarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqliligiga asoslanadi”<sup>7</sup> deyilgan.

Konstitutsiyada belgilangan oila munosabatlariga oid normalar oila hayoti bilan bog'liq va oila munosabatlarini tartibga solishga qaratilgan.

Oilaning jamiyatdagi rolini ta'minlashda, uning huquqiy muhofazasi va ijtimoiy mavqeini mustahkamlashda “Oila kodeksi” ning roli katta. O'zbekiston Respublikasining Oila kodeksi jahon hamjamiyatida umumiy e'tirof etilgan huquqiy normalarga to'la mos ravishda tuzilgani holda, “oila – jamiyatning tuzilmasidir” degan fikrga asoslangan.<sup>8</sup>

Oila to'g'risidagi qonun hujjatlarining asosiy vazifasi oilani mustahkamlash, oiladagi kishilarning munosabatlarini yaxshilash, oila a'zolarining har birining oila oldidagi mas'uliyatini anglatishdan iboratdir.

“Oila to'g'risidagi qonunchilikning vazifalari oilani mustahkamlashdan, oilaviy munosabatlarni o'zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a'zolarining mas'ulligi hissi asosida qurishdan, biron-bir shaxsning oila masalalariga o'zboshimchalik bilan aralashishiga yo'l qo'ymaslikdan, oila a'zolari o'z huquqlarini to'sqinliksiz amalga oshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta'minlashdan iboratdir.”<sup>9</sup>

Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikoh tuzishiga asoslanadi. Er va xotinning shaxsiy va mulkiy teng huquqliligini anglatadi.

O'zbekiston Respublikasida otalik, onalik, bolalik, oila yuksak darajada qadrlanadi. Ona va bola huquqlari va manfaatlarini ta'minlash va muhofaza qilish masalalarini davlat o'z zimmasiga oladi va qonun jihatidan ta'minlaydi.

Oila muqaddasligi, uning jamiyat taraqqiyotining asosiy bo'g'in hisoblanishi hamda butun insoniyat taraqqiyotining birlamchi poydevori ekanligini inobatga olgan holda Birlashgan Millatlar Tashkilotining Bosh Assambleyasi 1994-yildan e'tiboran har yili 15-

<sup>6</sup> A.Azizxo'jaev.,O.Husanov.,X.Azizov.Konstitutsiyaviy huquq.(izohli lug'at). “Akademiya”.Toshkent-2001.71-b.

<sup>7</sup> O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent- “O'zbekiston”-2019.21-b.

<sup>8</sup> U.Tadjixanov,X.Odilqoriev,A.Saidov.O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. “Sharq”nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent-2001.419-b.

<sup>9</sup> Oila kodeksi.1-modda.



may sanasini “Xalqaro Oila kuni” sifatida nishonlashga qaror qilgani va bu kun har yili xalqaro miqyosda keng nishonlanishi oilalarga bo’lgan e’tiborning yaqqol na’munasidir. O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 65-moddasi 2-qismi hamda Oila kodeksining 4-moddasi 1-qismiga binoan oila, otalik, onalik va bolalik davlat himoyasidadir. Oilalarni har jihatdan muhofazalash, oilaga muntazam g’amxo’rlik qilish, unga har taraflama moddiy va ma’naviy ko’mak berish, insonparvar huquqiy demokratik davlatning muhim vazifalaridandir.<sup>10</sup>

Oila jamiyat va davlat taraqqiyotida asosiy vazifani bajarib, davlat farovonligi, yurt tinchligi, fuqarolarning ma’nan yetukligi, kelajakning barqarorligini mustahkamlaydi.

Jamiyatni mustahkam, farovon etuvchi oilalardan davlat har doim minatdor bo’lgan. Shuning uchun ham oila va oilaviy munosabatlarning yaxshilashni ta’minlash uchun davlat turli islohotlarni amalga oshirib kelmoqda.

### **Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. 1998 yil – oila yili – 1998 год семьи.-Т.:Узбекистон.1998
- 2.A.Azizxo’jaev.,O.Husanov.,X.Azizov.Konstitutsiyaviy huquq.(izohli lug’at). “Akademiya”.Toshkent-2001.
- 3.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. Toshkent- “O’zbekiston”-2019.
- 4.U.Tadjixanov,X.Odilqoriev,A.Saidov.O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy huquqi. “Sharq”nashriyoti-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosh tahririyati.Toshkent-2001.
- 5.Oila kodeksi.
- 6.H.H.Mahmodov.,R.T.Berdiyarov.,G.M.Isroilova.Huquqshunoslik. “Voris-nashriyot”.Toshkent-2010.

<sup>10</sup> H.H.Mahmodov.,R.T.Berdiyarov.,G.M.Isroilova.Huquqshunoslik. “Voris-nashriyot”.Toshkent-2010.92-b.